

# **Burhoniddin Ahmedov "Taqvo: tushuncha va ta'rif" kitobidan qisqa xulosa**

## **Taqvoning darajasi:**

- 1. Shirkdan saqlanish bu abadiy azobdan qutulish;**
- 2. Har qanday gunohdan uzoqlashish (garchi insonar nazdida kichik gunoh bo'lisa ham, mana shu narsa shariatda taqvo deb atalgan);**
- 3. Uni Allohning zikridan to'sib qo'yadigan ishlardan poklash (bu talab qilingan haqiqiy taqvodir).**

## **Taqvoning holatlari:**

- 1. Shirkdan taqvo qilish, Yagona Allohgagina ishonish va Ungagina tavakkul qilish;**
- 2. Bid'at, xurofotdan taqvo qilish, ahli sunna val – jamoa e'tiqodini tan olish;**
- 3. Kichik gunohlardan taqvo qilish, toat-ibodat va nabiy sollallohu alayhi vasalamning sunnatlarini bajarishda bardavom bo'lish.**

## **Taqvoning sharafi va ahamiyati:**

- 1. Taqvo Alloh taoloning barcha insonlar uchun qilgan vasiyati;**
- 2. Taqvo nabiy sollallohu alayhi vasallamning ummatlariga qilgan vasiyati;**
- 3. Taqvo jamiki payg'ambarlarning qilgan vasiyatidir;**
- 4. Taqvo solih kishilarning vasiyatidir;**
- 5. Taqvo inson ziynatlanadigan eng go'zal libosdir;**
- 6. Taqvo inson oxirati uchun tayyorlaydigan eng afzal zaxira;**
- 7. Taqvo ahli Alloh taoloning do'stlari bo'lib, ular insonlarning sharaflisidir;**
- 8. Taqvoning sharafi uchun ezgulikda hamkorlik qilish.**

## **Taqvoning Qur'oni Karimdag'i ma'nolari (Imom G'azzoliy nazdi ila):**

- 1. Qo'rqish;**
- 2. Toat-ibodat;**
- 3. Qalbni gunohlardan poklash (shubhasiz bu yuqoridagilardan ko'ra taqvoning asl mohiyatidir).**

**Alloh taologa qanday taqvo qilasiz?**

1. **Alloh taologa bo'lgan muhabbat;**
2. **Alloh taolo seni kuzatib turganini qlbing bilan his qilishing va undan haqiqiy hayo qilishing;**
3. **Ma'siyat va gunoh narsalarni bilishing;**
4. **Qanday qilib nafsing ustidan g'olib kelib, Robbingga itoat qilishni bilishing;**
5. **Shaytonning makr-xiytlarini bilishing va uning vasvasasidan ehtiyyot bo'lising.**

**Alloh taoloning muhabbatini qozonish yo'llari:**

1. **Qur'oni Karim ma'nolarini tadabbur va tafahhum bilan ya'ni tushunib o'qish;**
2. **Farz amallardan keyin nafl ibodatlar bilan Allah taologa qurbat hosil qilish;**
3. **Qalbimiz va tilimiz doimo Uning zikrida bo'lishi;**
4. **Nafs g'olib bo'lib kelgan paytda o'zgalar muhabbatidan Allohnning muhabbati ustun kelishi;**
5. **Allohnning ism-sifatlari va ularni mushohada qilishni o'qib o'rganish, ma'nolarini tadabbur qilishni egallah;**
6. **Alloh taoloning inson uchun yaratgan ne'matlarini, yaxshiliklarini eslab yod etish. Zero qalb unga yaxshilik qilganlarni yaxshi ko'radi va yomonlik qilganlarni yomon ko'radi;**
7. **Alloh taoloning amri dunyo osmoniga tushgan paytda holi qolib ibodat qilish;**
8. **Ilm ahli bilan birga bo'lib ularning samaralari va xushbo'y so'zlaridan bahramand bo'lish;**

9. Aloh taolo bilan inson qalbi o'rtasida shubhalarga olibboruvchi sabablardan yiroq bo'lish;
10. Alloh taoloning buyukligiga sabab dalolat qiluvchi yaratgan narsalari haqida tafakkur qilish (chunki qab tabiatan komil muhabbatga moyil yaratilgandir);
11. Qur'on va hadisda keltirilgan Qiyomat kuni jannat ahlining Robbisi huzuriga to'planib borishi, Uni ko'rishi haqidagi xushxabarni eslash.

**Insonlar bir necha sabablarga ko'ra gunohlardan o'zlarini tiyadilar:**

1. Alloh taologa muhabbatlari sabab;
2. Jannah va uning ahli uchun tayyorlangan ne'matlarni istashlari sabab;
3. Gunoh ketidan yomonlik, musibat va balo ofatlar kelishini anglab gunohdan tiyiladilar;
4. Ilyon halovatini tatigan qalb sohiblari bo'lganliklari uchun;
5. Vijdoniylilik, mard, jasur va qat'iyatlilikdan iborat oliy xulq sohibi bo'lism uchun gunoh qilmaydilar.

**Shayton mo'minlarni oltita to'siqqa olib boradi:**

1. Kufr;
2. Bid'at;
3. Katta gunohlar;
4. Kichik gunohlar;
5. Toat-ibodatdan mashg'ul qilib qo'yadigan bekorchi ishlar;
6. Fazilatli bo'Imagan ya'ni ikkinchi darajali ishlar bilan mashg'ul qilib qo'yadi.

**Shayton vasvasasidan saqlanish yo'llari:**

1. Allohdan shaytonning yomonligidan panoh so'rash;
2. Falaq va Nas suralarini o'qish;
3. Uxlashdan oldin "Oyatal Kursiy"ni o'qish;
4. Baqara surasini o'qish;

5. Baqara surasining oxirgi ikki oyatini o'qish;
6. Qur'oni Karimni ko'p tilovat qilish va hadisda kelgan duolarni o'qish;
7. Tahorat va namozda mustahkam bo'lish;
8. Ko'p gapishtirish va ko'p ovqat tanovul qilish kabi bekorchi narsalardan uzoq bo'lish.

**Taqvodorlarning sifati:**

1. G'ayb olamiga qat'iy ishonch bilan iymon keltiradilar;
2. Kechirimli bo'ladilar va qalblarida gina saqlamaydilar;
3. Ular katta gunohga yaqinlashmaydilar, kichiklariga esa beparvo bo'lmaydilar;
4. Ular iymonlarida sodiq bo'ladilar va barcha payg'ambarlarni tasdiqlaydilar;
5. Allohning shiorini ulug' biladilar;
6. Adolati bo'ladilar va boshqalarni ham shunga undaydilar;
7. Payg'ambarlar, sahabalar va solih kishilar yo'llariga ergashadilar;
8. Shubhali narsalarni tark qiladilar.

**Taqvoning oxiratdagi samarasi:**

1. Yomonliklarning o'chirilishi (bu do'zaxdan qutulishga sabab savobning ko'payishi jannatning ulug' darajalri bilan mukofotlanishga sabab bo'ldi)
2. Qiyomat kuni xalqning eng azizi bo'ladilar;
3. Jannatning merosxo'ri bo'ladilar;
4. Ular jannatga piyoda bormaydilar, balki ulovda boradilar;
5. Ular jannat darajalarining eng yuqorisi bilan mukofotlanadilar, jannatning past darajasiga kirmaydilar;
6. Oxiratda ular taqvodor do'stlari bilan birga bo'ladilar;
7. Ular oxiratda do'stlari va ahllari bilan birga bo'ladilar va jannatga to'p-to'p bo'lib kiradilar

## **Taqvoning bu dunyodagi samarasi:**

- 1. Har bir har qanday qiyinchilikni yengib o'tishi va o'ylamagan taraflaridan rizqlanishi;**
- 2. Har bir ishda engillik bo'lishi;**
- 3. Foydali ilm sohibi bo'lishga muyassar bo'ladi;**
- 4. Haq bilan botilni ajrata biladi;**
- 5. Alloh taolo va farishtalarning muhabbatiga erishadi;**
- 6. Alloh taoloning nusrati va qo'llab-quvvatlashi, to'g'ri yo'lga boshlashi;**
- 7. Brakaning bo'lishi;**
- 8. Dunyo va oxiratda ular uchun xushxabar bo'lishi;**
- 9. Dushmanlarning makr-xiylasidan omonda bo'ladilar;**
- 10. Ularning surriyotlari Allohning g'amxo'rligida bo'ladi**
- 11. Dunyo va oxiratda solih amallarining qabul bo'lishiga sabab bo'ladi;**
- 12. Dunyo azobidan najot topishlariga sabab bo'ladi;**
- 13. Alloh taqvo sababli ularni xalqning salobatlisi, sharaflisi qiladi va ularga ma'rifat va iymon halovatini beradi;**
- 14. Riyokorlarning toat-ibodatidan taqvodorlarning zarracha qilgan ibodati afzaldir.**

